

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ERIMBETOV BERDIMURAT KARLIBAEVICH

**UCHSAY BENTONITI VA IKKILAMCHI RESURSLAR ASOSIDA
KERAMZIT ISHLAB CHIQRISHNING ENERGOSAMARADOR
TEXNOLOGIYASI**

**05.09.05- Qurilish materiallari va buyumlari
02.00.15 - Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Erimbetov Berdimurat Karlibaevich

Uchsay bentoniti va ikkilamchi resurslar asosida keramzit ishlab chiqarishning energosamarador texnologiyasi.....3

Еримбетов Бердимурат Карлыбаевич

Энергоэффективная технология производства керамзита на основе Учсайского бентонита и вторичных ресурсов.....21

Erimbetov Berdimurat Karlibaevich

Energy-efficient technology for producing expanded clay aggregate using Uchsay bentonite and secondary resources.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ERIMBETOV BERDIMURAT KARLIBAEVICH

**UCHSAY BENTONITI VA IKKILAMCHI RESURSLAR ASOSIDA
KERAMZIT ISHLAB CHIQRISHNING ENERGOSAMARADOR
TEXNOLOGIYASI**

**05.09.05- Qurilish materiallari va buyumlari
02.00.15 - Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T4320 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume), ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.taqi.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Sabirov Baxtiyor Toxtayevich

texnika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Purxanatdinov Aman Purxanatdinovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Usmonov Hikmatilla Lutpullaevich

texnika fanlari doktori, professor

Sattorov Zafar Murodovich

texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «26» dekabr soat 10:00 da bosh binoning 3 chi korpusidagi majlislar zalida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100094, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 9a uy Tel: (+998 55), faks: (+998 55) 508-02-56 e-mail: (devon@taqi.uz, taqi_atm@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 179 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100094, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 9a uy. Tel: (+998 55) 508-02-56, faks (+998 55) 508-02-56 e-mail: devon@taqi.uz, taqi_atm@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "13" dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 24-iyundagi 57/2025 reyestr bayonnomasi)



X.A. Akramov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

I.I. Siddikov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

N.X. Tolipov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi t.f.d., professor

KIRISH (falasafa doktori (PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda energiya manbalariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Energiya manbalarining deyarli yarmi bino va inshootlar ekspluatatsiyasi davrida ularni isitish yoki sovutishga sarflanadi. Hozirgi kunda aholi uchun turar-joy, ijtimoiy infrastruktura obyektlari, sanoat tarmoqlari uchun ishlab chiqarish korxonalarini, transport tizimi uchun zamonaviy yo'llar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va boshqa turdagi qurilish obyektlarini qurishda energotejamkor, arzon va yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan turli qurilish materiallari bilan ta'minlash yanada dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Jahonda qurilish materiallari ishlab chiqarishda arzon xomashyo manbalarini izlash, ishlab chiqarish jarayonida tabiiy xomashyo resurslarini tejab foydalanish va turli sanoat korxonalarini chiqindilaridan foydalanish, energoresurslarni tejash va mahsulotning narx hamda sifat bo'yicha raqobat bardoshligini saqlab qolish ustivor omillardan hisoblanadi. Boshqa tomondan qurilish materiallari qatorida issiqlikdan himoyalovchi funksional materiallar alohida o'rin tutadi. Bu yo'nalishda qurilish obyektining uzoq yillik ekspluatatsiya davrida yilning sovuq mavsumida uni isitish yoki issiq mavsumida esa sovutish uchun energiya sarfini tejash maqsadida issiqlikdan himoyalovchi materiallardan keng foydalaniladi. Keramzit bentonit, argillit kabi gilli mineral xom ashyolarni ko'pchitish yo'li bilan olinadigan g'ovakli engil keramik granula shaklidagi mahsulotdir. Portlandsement asosida tayyorlanadigan engil beton olishda engil to'ldiruvchi komponent sifatida keramzit granulari yoki ularni maydalab olingan turli fraksiya o'lchamlaridagi keramzit shag'ali qo'llaniladi.

O'zbekistonda keramzit ishlab chiqarish uchun xomashyo zahiralari sifatida 200 dan ortiq turli zahiraga ega bo'lgan bentonit gillarining konlari aniqlangan bo'lib, ularning umumiy miqdori 2,0 mlrd. tonnadan ortadi. O'tgan asrning 1970-1989 yillarida O'zbekistonda keramzit mahsuloti sanoat miqyosida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo kabi viloyatlarda hamda Qoraqalpog'istonda bir nechta yirik korxonalarda ishlab chiqarilib, ulardan o'sha davr qurilish obyektlarida keramzitobeton tayyorlashda, binoning yuqori shifti hamda pol qismini issiqlikdan himoyalovchi sochiluvchan izolyatsion to'shama shaklida keng foydalanilgan. Ammo, 1990 yilga kelib, qurilishdagi inqirozli vaziyat davrida eskirgan texnologiyalar va yuqori tabiiy gazdagi energiya sarfi sababli keramzit o'z raqobatbardoshligini vaqtincha boshqa yangi qurilish materiallari foydasiga bo'shatib berdi. Biroq, so'ngi besh yillikda yaqqol namoyon bo'lgan holat, ya'ni global miqyosdagi energetik taqchillik va iqlim o'zgarishlari va yuqori demografik o'sish tendensiyalari, qurilish hajmlarining ortishi sharoitida keramzitga bo'lgan talab yana keskin ravishda ortmoqda.

Yuqorida ko'rsatilgan holatlardan kelib chiqib, keramzitdan foydalanib keramzitli beton tayyorlash hisobiga zamonaviy qurilish ob'ektlarining fundament qismiga tushadigan og'irlik yuklamasini kamaytirish, binolarning issiqlikdan himoyalash ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida engil beton tayyorlash uchun maqbul tarkiblarni ishlab chiqish tadqiqotchilar oldidagi dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlardandir. Shu maqsadda, mahalliy bentonit gili xomashyosi va

ikkilamchi resurslardan foydalanib, kuydirish (ko'pchitish) jarayonida kam energiya sarfi hisobiga g'ovakli engil keramzit granulalarini ishlab chiqarish uchun maqbul tarkib va zarur maqbul texnologik parametrlarini hamda keramzitli engil betonlar tarkibini ishlab chiqish alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni¹, 2019 yil 23 maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-4335-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-sonli Qarori, 2021 yil 27 maydagi “2021-2022-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tabiiy-xomashyo va mineral resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha xomashyo bazasini kengaytirish hamda shu asosda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 327-sonli Qarori, 2019 yil 16-yanvardagi “Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 37-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiyadagi tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi bo'lgan II “Energetika, energiya va resurslarni tejash” va VII “Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya” ustivor yo'nalishlariga muvofiq ravishda bajarildi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha S.P.Onaskiy, B.N.Kaufman, I.A.Gervids, V.A.Beregovoy, V.I.Vereshagin, Yu.V.Selivanov, I.D.Kashcheyev, A.G.Marva, F.M.Mohamed, U.Fahim, S.Hoshim, B.I.No, V.P.Luzin, L.P.Luzina, Yu.A.Shepochkina, Ye.A.Lebedeva, T.V.Xmelenko, O.V.Kononova, V.D.Kotlyar, S.M.Vasilev kabi jahonning etakchi tadqiqotchi olimlari tomonidan tabiiy mineral xomashyolar hamda turli mineral va kimyoviy qo'shimchalar yordamida g'ovakli keramik qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun tarkiblar ishlab chiqish va hamda mavjud ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va yangi texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy olib borilgan maqsadli tadqiqotlar natijasida salmoqli natijalarga erishilgan.

O'zbekiston olimlari qatorida F.X.Tadjiev, L.M.Botvina, N.A.Sirojiddinov, A.A.Ismatov, E.U.Qosimov, B.A.Asqarov, X.A.Akramov, A.A.To'laganov, X.X.Kamilov, U.A.Gaziev, T.T.Shokirov, A.M.Eminov, Z.R.Qodirova, N.H.Tolipov, B.T.Sabirov, I.R.Boyjonov, Z.M.Kuryazov, Z.M.Sattorov, A.P.Purxanatdinov, Sh.M.Niyazova va boshqalar olimlar mahalliy xomashyo va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

texnogen resurslardan foydalanib, turli qo‘shimchalar va usullardan foydalanish hisobiga konstruktiv keramik qurilish materiallarini, shu jumladan, issiqlik izolyatsion materialarni ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqishga, ushbu xomashyolar va ular asosida olingan materiallarning xossalarini tadqiq etishda o‘z xissalarini qo‘shdilar.

Bajarilgan taqqiqotlar natijasida bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasining mahalliy bentonit gilli xomashyolari va texnogen resurslaridan ko‘pchitish yo‘li bilan olinadigan keramzit kabi engil g‘ovakli strukturaga ega bo‘lgan mustahkam keramik qurilish materiallarini ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar etarli darajada amalga oshirilmagan. Shu sababdan ularni yanada kengroq o‘rganish, yangi konlardan olingan bentonit gillarining tarkibi, xossalari, texnologik xususiyatlarni aniqlash, ular asosida keramzit olish uchun shixtalarning yangi maqbul tarkiblarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish sharoitida sinovlardan o‘tkazish, olingan yangi materiallarning fizik-texnik va ekspluatatsion xossalarini o‘rganish hamda ularning xomashyo va shixta tarkiblari, shuningdek, texnologik parametrlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini tadqiq etishga ehtiyoj mavjud.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya ishi olib borilayotgan tashkilotda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zR Vazirlar Maxkamasining “2021-2022-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi tabiiy-xomashyo va mineral resurslarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha xomashyo bazasini kengaytirish hamda shu asosda qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2021 yil 27 maydagi 327-son Qarorining ijtosini ta‘mimlash maqsadida Qoraqalpoq davlat universiteti “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mahalliy xomashyo va ikkilamchi resurslar, xususan Uchsay bentonit gili va “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK chiqindisi hamda Tebinbuloq vermikulitini boyitish jarayonida xosil bo‘lgan qoldiq vermikulitli chiqindilari asosida yangi tarkib ishlab chiqish yo‘li bilan keramzit va engil beton olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: - Uchsay bentonit gilining, “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK distiller shlam chiqindisining hamda Tebinbuloq vermikulitini boyitish jarayonida xosil bo‘lgan qoldiq vermikulitli chiqindining kimyoviy-mineralogik, granulometrik tarkiblarini va texnologik xossalarini o‘rganish;

- Uchsay bentonit gili va “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK chiqindisi hamda Tebinbuloq vermikulitini boyitish jarayonida xosil bo‘lgan qoldiq vermikulitli chiqindilarning uch komponentli tarkiblar asosida yuqori haroratlarda sodir bo‘ladigan ko‘pchitish, faza o‘zgarishlari va yangi minerallar hisobiga keramzit strukturasi hosil bo‘lish jarayonlarini tadqiq etish;

- ko‘pchitilgan bentonit granulalarining fizik-mexanik xossalariga komponent tarkibi, termik ishlov berish (ko‘pchitish) harorati, rejimi va g‘ovak hosil qiluvchi qo‘shimchalarning ta‘sirini o‘rganish;

- Uchsay bentonit gili va “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK chiqindisi hamda Tebinbuloq vermikulitini boyitish jarayonida xosil bo‘lgan qoldiq

vermikulitli chiqindilari asosida yangi asosida olingan keramik materiallarining tajriba namunalarini fizik-kimyoviy, fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarini aniqlash;

- ko'pchitilgan keramik material olish uchun mo'ljallangan kompozitsiyalar asosida keramzit ishlab chiqarish bo'yicha sanoat sharoitida tajriba ishlarini bajarish;

- Uchsay bentonit gili va "Qo'ng'iroq soda zavodi" MChJ QK chiqindisi hamda Tebinbuloq vermikulitini boyitish jarayonida xosil bo'lgan qoldiq vermikulitli chiqindilari asosida olingan keramzit granulari va ularni turli o'lcham fraksiyalaridan foydalanib portlandsement asosidagi keramzitli engil beton tarkiblarini ishlab chiqish va ular asosidagi beton namunalarining fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot ob'ektlari. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanidagi Uchsay koni bentonit gili, "Qo'ng'iroq soda zavodi" MChJ QK distiller shلامي, Tebinbuloq vermikulitini boyitish jarayonida hosil bo'lgan qoldiq vermikulitli chiqindi hamda ular asosida tayyorlangan va yuqori haroratda termik ishlov berilgan (ko'pchitilgan) keramik materiallarning laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida olingan betonlarning tajriba namunalari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti sifatida bentonit gili va ikkilamchi resurslaning kimyoviy-mineralogik tarkiblari, ular asosida ishlab chiqilgan tajribaviy tarkiblar, ushbu tarkiblardan tayyorlangan namunalarning fizik-texnik ko'rsatkichlari, yuqori haroratlarda boradigan faza o'zgarish va struktura hosil bo'lish jarayonlari hamda ular orasidagi bog'liqlik qonuniyatlarini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya tadqiqot ishlarini bajarish davomida bentonit gili, ikkilamchi resurslar, keramzit va yengil betonning xossalari, sifat ko'rsatkichlarini o'rganishda zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari (kimyoviy, rentgenofazaviy, differensial-termik, IQ-spektroskopik, electron-mikroskopik) tahlil hamda standart sinov usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Uchsay bentonit gili va ikkilamchi resurslar asosida tayyorlangan tarjiba namunalarga 1000-1070°C yuqori harorat oralig'ida termik zarba berilganda, yuzaga kelgan fazaviy o'tish va yangi kristall fazalar hosil bo'ish jarayonlari natijasida vollastonit, mullit, α -kvars, gematit va qisman anortit minerallarining shakllanishlari aniqlangan;

-keramzitning strukturasi shaklanishining o'ziga xos xususiyatlari hamda asosiy fizik-mexanik, texnologik va ekspluatatsiya xossalari foydanilayotgan asosiy xom ashyo va ikkilamchi reserslarning tarkibi va shixta tarkibidagi ulushiga hamda ko'pchish haroratining ortishib borishiga bog'liq ravishda o'zgarishi isbotlandi;

Uchsay bentonit gili (90 %) va soda ishlab chiqarish distiller shلامي chiqindisi (10 %) hamda vermikulitni bo'yitish chiqindisidan (100% dan tashqari 2 %) foydalanib olingan keramzitning ko'pchitish haroratini 50-60 °C gacha pasaytirish imkoniyati aniqlandi;

Uchsay bentonit gili va soda ishlab chiqarish distiller shلامي chiqindisi hamda vermikulitni bo'yitish chiqindisilari asosida olingan keramzitning to'kma

zichligi $670-690 \text{ kg/m}^3$, siqilishga mustahkamligi $3,5 \text{ MPa}$, ko'pchish koeffitsienti - $3,65\%$ bo'lgan keramzit olish imkoniyatlari isbotlandi;

Uchsay bentonit gili asosida va soda ishlab chiqarish distiller shlamli chiqindisi hamda vermikulitni bo'yitish chiqindilaridan olingan keramzitni yengil beton uchun to'ldiruvchi sifatida foydalanib $0,52 \text{ W/m}^{\circ}\text{C}$, og'irligi 1400 kg/m^3 va siqilishga mexanik mustahkamligi $12,5 \text{ MPa}$ ni tashkil etadigan olingan konstruksion-issiqlik izolyatsiyalovchi engil betonlar olish mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- Uchsay bentonit gili va ikkilamchi texnogen resurslar kalsinirlangan soda ishlab chiqarishda hosil bo'luvchi distiller shlami va vermikulitni boyitishda hosil bo'lgan chiqindilardan foydalanib qurilish industriyasi ehtiyojlari uchun tayyor keramik mahsulot – keramzit ishlab chiqarishning texnologiyasi ishlab chiqildi;

- Qoraqalpog'iston mahalliy bentonit gili xomashyosi va ikkilamchi texnogen resurslar asosida olingan keramzitdan foydalanib qurilish uchun tayyor material - engil betonlar uchun tarkiblari ishlab chiqildi;

- Olingan keramzit asosida engil betonlar tarkibi ishlab chiqildi va "Nukus TBBZ " MChJ sharoitida tajriba-ishlab chiqarish sinovidan o'tkazildi. Yengil beton tajriba namunalarining asosiy qurilish-texnik xususiyatlarini tadqiq qilishda eng yaxshi natijalar keramzit granulali engil beton UchKB-1 namunasida olinganligi aniqlandi, unda markasi to'kma zichligi bo'yicha M700, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti $0,52 \text{ W/m}^{\circ}\text{C}$, hajmiy massasi 1400 kg/m^3 va siqilishdagi mustahkamligi $12,5 \text{ MPa}$ ni tashkil etdi. Olingan keramzitbetonlar GOST 25820-2021 bo'yicha B12,5 beton sinfi va M150 beton markasi bo'yicha barcha zaruriy talablarga javob berishi isbotlandi;

- Uchsay gili asosida keramzit granulalari ishlab chiqarish uchun maqbul narkib va keramzit olishning ishlab chiqilgan past haroratli texnologiyasini joriy etishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik yiliga $95\ 500 \text{ AQSh}$ dollarini tashkil etish xisoblashlar yo'li bilan aniqlandi.

- ishlab chiqilgan usul aslsida olingan keramzit granulalari va ular asosidagi engil beton amaldagi standartning barcha belgilangan talablariga javob beradi va qurilish materiallari sanoatida issiqlik energosamarador qurilish-konstruksion materialllar ishlab chiqarishda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishlarini bajarishda ko'pchitilgan keramik material - keramzit granulalarini olishning zamonaviy laboratoriya usullari hamda ishlab chiqarishdagi sanoat texnologiyalari va texnologik vositalaridan foydalangan holda olib borilganligi, eksperimental natijalar qurilish normalari va qoidalariga asoslanganligi, tajribalar natijasida mantiqiy asoslangan ilmiy xulosalar nazariy qonuniyatlarga mos ravishda chiqarilganligi, shuningdek, ishlab chiqarish sharoitda olingan tajriba-sinov natijalari bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati issiqlikdan himoyalovchi materiallar olish uchun g'ovak hosil qiluvchi qo'shimcha bilan bentonit gili asosida ko'pchitilgan keramik material-keramzit granulalari namunalarining asosiy fizik-kimyoviy, fizik-mexanik va texnologik xususiyatlarining funksional bog'liqligini asoslash va xomashyo turi

va aralashma tarkibidagi ulushi bo'yicha izolyatsion va yakuniy tayyor qirilish materialini hisoblangan – engil betonlarning konstruktiv issiqlik izolyatsion materialini fizik-texnik va ekspluatatsion xossalarini aniqlash bilan belgilanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati Qoraqalpog'istondagi Uchsay koni bentonit gili xomashyosi va texnogen chiqindilardan foydalanib zarur fizik-texnik va ekspluatatsion ko'rsatkichlarga ega bo'lgan tayyor mahsulot keramzit granularini olishning yangi tarkiblari va texnologik rejimlarini ishlab chiqish bilan hamda ulardan sochiluvchan issiqlikdan himoyalovchi to'shama (granula) material va sement bog'lovchili engil betonlar olish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Uchsay bentonit gili xomashyosi va soda ishlab chiqarish chiqindisidan foydalangan holda energiya tejovchi ko'pchitilgan keramik material keramzit tarkibini ishlab chiqarishga tadbiiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalarga ko'ra:

Yangi tarkibdagi keramzit granularining ishlab chiqilgan maqbul tarkibi Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi "AZKAMAR" MChJ korxonasi sinovdan o'tkazildi ("AZKAMAR" MChJda o'tkazilgan sinov ishlari yuzasidan 2023 yil 18-19 noyabrda tasdiqlangan Dalolatnoma). Natijada, keramzit granularini ko'pchitish jarayonida kuydirish haroratini 50-60 °C gacha pasaytirish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirishga erishilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida faoliyat ko'rsatuvchi "Nukus TBBZ" MChJ tomonidan keramzitdan foydalanib engil beton ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqarishga joriy etilgan ("Nukus TBBZ" MChJda o'tkazilgan sinov ishlari yuzasidan 2025 yil 1 may tasdiqlangan Dalolatnoma). Qoraqalpog'iston qurilish industriyasi ehiyojlari uchun tayyor issiqlikdan himoyalovchi keramzit mahsuloti va ushbu keramzitdan engil to'ldiruvchi sifatida foydalanib engil betonlar ishlab chiqarish imkoniyati aniqlandi.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya ishining tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 8 tasi ilmiy maqola, shu jumladan SCOPUS bazasida indekslanuvchi xorijiy ilmiy jurnallarda 1 ta, O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola hamda 11 ta ma'ruza tezislarini xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida hal qilinayotgan muammoning dolzarbligi va dissertatsiya mavzusining zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi belgilangan, ilmiy yangilik va tadqiqotning amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha

tadqiqot natijalarini aprotatsiyasi va nashr etilgan ilmiy ishlar, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bentonit gili va g'ovak hosil qiluvchi ikkilamchi resurslar asosida keramik qurilish materiallari va yengil beton ishlab chiqarish bo'yicha tadqiqotlarning hozirgi holati va istiqbollari”** deb nomlangan **birinchi bobida** qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida bentonit gili asosida keramzit olish usullari, tarkiblari, ishlab chiqarish texnologiyalari, fizik-kimyoviy, fizik-mexanik xossalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarning batafsil tahliliy sharxi berilgan. Ta'kidlanishicha, jahonda keramzit ishlab chiqarishda yuqori mustah-kamlikka ega, fizik-kimyoviy, fizik-mexanik xossalariga javob beradigan qurilish materiallini olishda mahaliy xom ashyo va ikkilamchi sanoat chiqindilardan foydalanish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari ushbu bobda keramzitni yengil beton uchun g'ovak, yengil, to'ldiruvchi sifatida foydalansih va keramzitbeton bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning batafsil tahliliy sharxi berilgan.

Dissertatsiyaning **“Gilli xomashyo va ikkilamchi resurslarning kimyoviy-mineralogik tarkiblari, fizik-texnik xususiyatlarini aniqlash va tajriba namunalarini tadqiq etish usullari”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** tanlangan ob'ektlar va olingan tajriba namunalarini o'rganish usullari, zamonaviy tadqiqot usullari, qurilmalar va asbob-uskunalar, shunindek, amaldagi standartlarda nazarda tutilgan qurilish materiallarini sinovdan o'tkazish usullari bayon etilgan.

Dissertatsiya ishining **“Bentonit gili, soda ishlab chiqarish chiqindisi va vermikulitini boyitish chiqindilarning fizik-kimyoviy va mineralogik tarkibini aniqlash hamda keramzit olish va uning hossalari tadqiq etish usullari”** deb nomlangan **uchinchi bobida**, zamonaviy tadqiqot usullari va amaldagi standart sinovlardan foydalangan holda, Uchsay konidan olingan bentonit gili, “Qo'ng'iroq soda zavodi” MChJ QK distiller chiqindisi va Tebinbuloq vermikulitni boyitish chiqindilarining kimyoviy-mineralogik tarkibi, differensial-termik, IQ-spektrskopik va mikroskopik tahlil usullari yordamida aniqlangan.

Bundan tashqari keramzit olish uchun maqbul tarkib ishlab chiqilgan va maqbul tarkib asosida olingan keramzitning fizik-mexanik xossalari aniqlangan. Uchsay bentonit koni gillarining kimyoviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-Jadval

Uchsay bentonit gili namunalarining kimyoviy tarkibi


Namuna №	Uchsay koni bentonit gillarining kimyoviy tarkibi,%										KY %
	SiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	TiO ₂	CaO	MgO	K ₂ O	Na ₂ O	SO ₃	P ₂ O ₅	
Uch-1	60,68	14,25	4,94	0,66	1,59	2,06	2,99	1,49	0,95	0,36	10,04
Uch -2	60,10	14,85	4,75	0,79	1,62	2,01	2,92	1,56	0,98	0,26	10,16
Uch -3	60,25	14,70	4,95	0,59	1,59	1,99	3,09	1,45	0,92	0,22	10,25
Uch o'rt	60,34	14,60	4,88	0,68	1,60	2,02	3,00	1,50	0,95	0,28	10,15
GOST-32026-2012	>70	10-25	2,5-12	0,1-2	>6	>4	1,5-6	>1,5	-	-	-

Izoh: Qizdirishdagi yo'qotishlarga (KY) tarkibiga quyidagilar kiradi: gigroskopik, konstitutsion, kristallangan suv, organik va uchuvchan moddalar hamda uglerod (II) oksidi.

Uchsay bentonit koni gillarining kimyoviy mineralogik tahlillari bo'yicha

olingan ma'lumotlarga ko'ra, kremnezem, glinozem, temir, kalsiy, ishqoriy metallarning oksidlari va karbonatlarning mavjudligi keramzitli issiqlik izolyatsiya materiallari tarkibini ishlab chiqishda qo'llash imkonini beradi.

Tadqiq qilinayotgan xomashyo materiallarining fazaviy tarkibi rentgenografik usul bilan aniqlandi.




1-Rasm. Uchsay bentonit gilining rentgenogrammasi

Uchsay bentonit gili rentgenogrammasida asosan kvarts kvarts ($d=0,421$; $0,332$; $0,244$; $0,227$; $0,222$; $0,212$; $0,197$; $0,181$; $0,166$; $0,153$; $0,145$; $0,138$; $0,137$ nm), muskovit ($d=0,499$; $0,443$; $0,399$; $0,376$; $0,364$; $0,322$; $0,299$; $0,255$, nm), albit ($d=0,364$; $0,317$; $0,294$; $0,150$ nm), montmorillonit ($d=0,750$; $0,500$; $0,448$; $0,304$; $0,255$; $0,244$), xlorit ($d=0,715$; $0,443$; $0,349$ nm) minerallarga tegishli bo'lgan difraksiya maksimumlari borligi aniqlangan (1-rasm).


Uchsay bentonit gili namunalarining differensial-termik tahlil natijalari 2-rasmda keltirilgan bo'lib, termik tahlilning qizdirish egri chizig'ining tegishli haroratlarida ekzo va endotermik effektlarning paydo bo'lishiga o'xshash jarayonlar ushbu gil namunalarida kuzatildi.

3-rasmda keltirilgan Uchsay bentonit gil namunasini IQ yutilish spektrlari shunga o'xshash ma'lum qatlamli alyumosilikat minerallarining spektrlariga o'xshashdir.



2-Rasm. Uchsay bentonit gilining DTA-grammasi

Ushbu gil namunalarining IQ-spektrlarida eng yuqori chastotali va intensiv chiziqlar $519,71$; $647,48$; $668,30$; $694,14$; $776,69$; $796,07$; $911,64$; $989,17$; $1621,58$; $3400,36$; $3620,73\text{sm}^{-1}$ sohalarda, Intensivligi $32,79$; $70,84$; $69,30$; $66,25$; $60,50$; $62,02$; $39,45$; $25,21$; $94,52$; $92,35$; $89,80\text{ sm}^{-1}$ ni tashkil qiladi.



3-Rasm. Uchsay bentonit gilining IQ-spektro-grammasi

“Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK distiller chiqindisining kimyoviy va kimyoviy-mineralogik tahlillari bo‘yicha olingan ma‘lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.


2-Jadval

“Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK distiller chiqindisining kimyoviy tarkibi

Namuna №	Kimyoviy birikmalar miqdori, mass.%						
	NaCl	Na ₂ CO ₃	CaCO ₃	Mg(OH) ₂	H ₂ O	Na ₂ SO ₄	SiO ₂
QS	14,31	0,045	31,05	8,96	40,51	0,13	4,43
QS	15,10	0,049	30,98	8,12	41,37	0,11	5,64
QS	13,9	0,039	31,89	9,03	39,95	0,15	4,03
O‘rtacha	14,4	0,044	31,30	8,70	40,61	0,13	4,7

“Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK distiller chiqindisining rentgenogrammasidan ko‘rish mumkinki, aniqlangan difraksion maksimumlar asosan tekisliklararo masofalari kalsiy karbonat $d=0,302; 0,281; 0,249; 0,209$ nm larda aniqlandi, past haroratli β -kvars uchun $d=0,333; 0,425; 0,187$ nm va α -kvars $d=0,342; 0,185; 0,162$ nm ekanligi aniqlandi. Bunda, past intensivlikka ega difraksion maksimumlar esa dala shpatlariga mansub bo‘lgan minerallarga tegishli ekanligi $d=0,381; 0,324; 0,321$ nm bilan tasdiqlandi (4-rasm).

Shunday qilib, “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QKning kalsinirlangan soda ishlab chiqarish jarayonida katta tonajda, ya‘ni yiligi 40-50 ming tn miqdorda hosil bo‘ladigan shlam holatidagi disteller chiqindisining kimyoviy va mineralogik tarkibi o‘rganildi.



4-Rasm. Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK distiller chiqindisining rentgenogrammasi


Bundan tashqari Tebinbuloq vermikulitini boytitish jarayonida hosil bo'lgan qoldiq vermikulitli chiqindisi ishlatilgan bo'lib, kimyoviy va kimyoviy-mineralogik tahlillari bo'yicha olingan ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-Jadval

Tebinbuloq vermikulitini boytitish jarayonida hosil bo'lgan qoldiq vermikulitli chiqindining kimyoviy tarkiblari

Namuna-lar	Oksidlarning miqdori, mass. %									
	SiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	CaO	MgO	SO ₃	Na ₂ O	K ₂ O	KY	Сумма
TB-1	44,03	6,14	10,32	20,37	14,72	0,4	0,98	0,4	4,20	101,56
TB-2	47,96	4,16	9,27	17,34	15,03	0,2	0,69	0,5	3,91	99,06
TB-3	42,85	5,67	11,13	19,67	13,58	0,3	0,78	0,3	3,80	98,08
TB o'rt	44,94	5,32	10,24	19,12	14,47	0,3	0,82	0,4	3,97	99,58

3-jadvalda keltirilgan Tebinbuloq vermikulitini boytitish jarayonida hosil bo'lgan chiqindining kimyoviy tarkibida aniqlangan oksidlar keramzit ishlab chiqarishda ikkilamchi resurs sifatida ko'shilganda uning fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sir qilishi aniqlangan.



5-Rasm. Tebinbuloq vermikulitini boytitish jarayonida hosil bo'lgan chiqindisining rentgenogrammasi

5-rasmda Tebinbuloq vermikulitini boytitish jarayonida hosil bo'lgan chiqindining rentgenogrammasi keltirilgan bo'lib, asosan diopsid, sepiolit va kvars minerallari aniqlangan. Diopsidga mos keluvchi effektlar tekisliklar orasidagi masofa quyidagi qiymatlarda kuzatilgan: $d=0,418$; $0,320$; $0,297$; $0,293$; $0,288$; $0,252$; $0,250$; $0,214$; $0,203$; $0,162$; $0,141$ va $0,140$ nm. Sepiolit uchun xos bo'lgan effektlar quyidagi qiymatlarida namoyon bo'lgan: $d=1,122$; $0,827$; $0,702$; $0,443$ va $0,351$ nm. Kvarsga mos keluvchi effektlar esa $d=0,332$; $0,212$; $0,182$; $0,154$ va $0,152$ nm qiymatlarida kuzatilgan.

Olingan natijalarga asosan, ushbu chiqindi Uchsay bentonit gili asosida keramzit ishlab chiqarishni tashkil etish uchun g'ovak hosil qiluvchi ikkilamchi resurs sifatida foydalanish mumkinligini asoslovchi ilmiy farazlarni shakllantirishga hamda ushbu yo'nalishda istiqbolda ilmiy tadqiqotlarni olib borishning afzalliklari bo'yicha xulosalar olishga xizmat qiladi.

Olingan namunalarda, bentonit gilining miqdori 75-95 % va "Qo'ng'irotda soda zavodi" MChJ QK distiller chiqindisi miqdori 5-25, Tebinbuloq vermikulitini boytitish jarayonida hosil bo'lgan qoldiq vermikulitli chiqindisi 1-5 %

miqdorgacha nisbatlarda olinib, keramzit uchun mo'ljallangan tajribaviy shixta tarkiblari ishlab chiqildi (4-jadval). Ushbu uch komponentli kompozitsiyaning tajriba namunalarining erish boshlanishi va tugashi haroratlarini aniqlash natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4- Jadval

Uchsay bentonit gili, "soda ishlab chiqarish distiller chiqindisi va vermikulitini boytitish chiqindisidan foydalanib tayyorlangan tajribaviy massalarning tarkiblari

Shixta nomi	Shixta tarkibidagi, ulush, %			Erish harorati		Harorat oralig'i, °C
	Uchsay bentonit gili	"Qo'ng'iroq soda zavodi" MChJ QK distiller chiqindisi	Tebinbuloq vermikulit chiqindisi	Boshlanishi	To'gashi	
UchK-1	90	10	2	1120	1170	50
UchK-2	95	5	2	1150	1200	50
UchK-3	85	15	2	1115	1165	50
UchK-4	80	20	2	1100	1150	50
UchK-5	75	25	2	1020	1050	30

Uchsay bentonit gili, "Qo'ng'iroq soda zavodi" MChJ QK distiller chiqindisi va Tebinbuloq vermikulitini boytitish jarayonida hosil bo'lgan qoldiq vermikulitli chiqindisi" kompozitsiyalarida bentonit gilining miqdori oshishi bilan kirishish hodisalari kuchayishi kuzatiladi (6-jadval). Qoliplangan tajriba namunalari Matest A010 markali quritish shkafida 100-120 °C oralig'ida 30 minut mobaynida 12-17% qoldiq namlikkacha, so'ngra yana 30 minut davomida 200-250 °C oralig'ida 3,0-0% qoldiq namlikkacha quritildi. Quritilgan namunalar 1050-1250 °C oralig'ida SNOL 30/1100 mufel pechida kuydirildi.

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, UchK-1, UchK-2, UchK-3 tajriba namunalari fizik-mexanik va texnologik ko'rsatkichlarining me'yoriy qiymati bo'yicha GOST 9759-83 va GOST 32496-2013 talablariga mos kelishi aniqlandi.

Ishlab chiqilgan UchK-1 maqbul tarkibini real ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o'tkazish maqsadida Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanida faoliyat ko'rsatayotgan "AZKAMAR" MChJning ishlab chiqarish korxonasida sinovdan o'tkazishga qaror qilindi va keramzit donalarini olish uchun qovushqoq usulda qoliplash usuli qo'llanildi. Buning uchun Uchsay bentoniti-90 % va "Qo'ng'iroq soda zavodi" MChJ QK soda ishlab chiqarish chiqindisi-10 % va Tebinbuloq vermikulitini boytitish jarayonida hosil bo'lgan qoldiq vermikulitli chiqindisidan-2 % (100% dan tashqari) iborat UchK-1 maqbul tarkibli shixtadan 15000 kg miqdorida tayyorlandi.

Tayyorlangan shixtadan ishlab chiqarishdagi texnologik uskuna – shnekli gidravlik prees yordamida uzluksiz rejimda diametri 22-26 mm va uzunligi 40-65 mm silindr shaklidagi tajriba namunalari tayyorlandi. Namligi 20-23% bo'lgan tajriba namunalari "AZKAMAR" MChJ korxonasidagi aylanma pechlarida kuydirildi.

Buning uchun tajriba namunalari dastlabki termik ishlov berilgandan so'ng lentali transportyor orqali 400-450°C haroratli birlamchi qizdirilgan aylanma pechga o'tkazildi. Bu yerda namunalar 20-25 daqiqa davomida termik ishlovdan o'tkazildi.

So'ngra termik ishlov berilgan namunalar darhol 950-1000°C haroratli asosiy aylanma pechga o'tkazildi va yakuniy haroratda 7 daqiqa davomida ushlab turildi. Tajriba namunalari amaldagi standartlarning usullariga muvofiq fizik-texnik ko'rsatkichlari aniqlandi (5-jadval).

5-Jadval

